

## **LINGVOMADANIY BIRLIKLAR TARJIMASIDA LUG'ATLARNING AHAMIYATI**

**Yusupov Asror Rayimqul o'g'li**

*Samarqand davlat chet tillat institute Tarjima nazariyasi VA amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi*

**Xolmurodova Mohzoda**

*Samarqand davlat chet tillat institute Ingliz filologiyasi VA tarjimashunoslik fakulteti talabasi*

### **A R T I C L E I N F O.**

**Kalit so'zlar:**

Lingvomadaniy, lingvokulturologiya, lug'atlar, umumiy lug'atlar, maxsus lug'atlar.

### **Annotatsiya**

Ushbu tezisda lingvomadaniy birliklar tarjimasida lug'atlarning ahamiyati, lingvistik lug'atlar adabiy til leksikasining ma'lum qatlamlari, tarjima lug'atlarida tarjima qilinayotgan tilning lug'aviy birligi, transliteratsiya, transkriptsiya, kalka haqida ma'lumotlar keng yoritilib borilgan. Bundan tashqari AQSh, Buyuk Britaniya, Rossiya va O'zbekiston davlatlarining madaniy so'zlarining qanday tarjima qilinishi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olami idrok etishidagi o'ziga xos jihatlarning tilda aks etishini o'rganish lingvokulturologiyaning asosiy maqsadidir. Mazkur sohaning obyekti til va madaniyat, predmeti esa o'zida madaniy semantikani namoyon etuvchi til birliklari hisoblanadi. Binobarin, lingvokulturologiyada madaniy axborot tashuvchi til birliklari tadqiq etiladi. Bunday til birliklari *lingvomadaniy birliklar* termini ostida birlashadi. Ramz, mifologema, etalon, metafora, paremiologik birliklar, lakunalar, stereotiplar, pretsedent birliklar, nutqiy etiketlar, asosiy lingvomadaniy birliklar hisoblanadi.

Olamning lisoniy manzarasini, madaniyatning asosiy konseptlari majmui bo'lgan konseptosferani, lisoniy ongni tavsiflash hamda til egalarining milliy-madaniy mentalligini aks ettiruvchi lisoniy birliklarni, insoniyatning qadimiy tasavvurlariga muvofiq keluvchi madaniy arxetiplarni, nutqiy muloqotga xos bo'lgan milliy ijtimoiy-madaniy stereotiplarni aniqlash lingvokulturologiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi. Til va madaniyatning o'zaro ta'siri muammosi etnolingvistika, etnopsixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvomamlakatshunoslik, lingvo-konseptshunoslik, lingvopersonologiya kabi sohalarda ham o'rganiladi. Shu sababli ushbu sohalar lingvokulturologiyaga yaqin sohalar hisoblanadi. [3]

Lingvistik lug'atlar adabiy til leksikasining ma'lum qatlami bilan chegaralanish-chegaralanmasligiga ko'ra quyidagi ikki asosiy tipga bo'linadi:

1) umumiy lug'atlar;

## 2) maxsus lug‘atlar.

Umumiy lug‘atlar so‘zligida adabiy tilning barcha soha va qatlamga oid leksikasi aks etadi. Masalan, “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at”, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, “Imlo lug‘ati” kabilar. Maxsus lug‘atlarining so‘zligi biror sohaga yoki ma’lum bir qatlamga oid so‘zlar bilan chegaralangan bo‘ladi. Masalan, “Sinonimlar lug‘ati”, “Frazeologik lug‘at”, “Matematika terminlari lug‘ati” kabilar. Tartibga solingan lug‘aviy birliklar, ularga berilgan ta’rif-tavsiflar aynan bir tildan yoki boshqa-boshqa tillardan bo‘lishiga ko‘ra lug‘atlar ikkiga bo‘linadi:

- 1) tarjima lug‘atlari;
- 2) o‘z til (bir tilli) lug‘atlari.

Tarjima lug‘atlarida tarjima qilinayotgan tilning lug‘aviy birligiga boshqa tilning ma’no jihatdan mos keladigan muqobili beriladi, o‘zga tilning lug‘aviy birligi tarjima qilinib, tavsiflanadi.

Ruscha-o‘zbekcha lug‘atdan namuna:

BKYUCHO - mazali, shirin.

НАДУТ - puflab shishirmoq, dam bermoq kabi. Tarjima lug‘atlari ikki tilli va ko‘p tilli bo‘lishi mumkin. Ko‘p tilli lug‘atlarda bir tilning lug‘aviy birligi ikki va undan ortiq tilga tarjima qilib beriladi. Tarjima lug‘atlarining asosiy qismini ikki tilli lug‘atlar tashkil etadi. Tarjima lug‘atlari o‘zga til lug‘at boyligini o‘rganish, o‘zlashtirishda muhim qo‘llanma – manba sifatida yaratiladi. O‘z til (bir tilli) lug‘atlarining so‘zligi va ularga beriladigan ta’rif-tavsiflar o‘z til materialidan bo‘ladi. Turli maqsadlarda tuzilgan lug‘atlarining asosiyalar quyidagilar: izohli lug‘at, imlo lug‘ati, talaffuz lug‘ati, morfem lug‘at, chastotali lug‘at, frazeologik lug‘at, omonimlar lug‘ati, sinonimlar lug‘ati, ters (chappa) lug‘at, antonimlar lug‘ati, paronimlar lug‘ati, evfemizmlar lug‘ati, dialektal lug‘at, terminologik lug‘at va boshqalar. Bir tilli lug‘atlarining ham umumiy (izohli, imlo, talaffuz lug‘ati kabilar) va maxsus (omonimlar, sinonimlar, frazeologizmlar, evfemizmlar lug‘ati kabi) tiplari mavjud. Lug‘at turlari yuqoridagilar bilan chegaralanmaydi. Bu lug‘atlarining vazifa ko‘lami kengligidan dalolatdir. Lug‘atlar ham ma’lum bir til vakillarining muhim madaniy boyligidir. Ular o‘zga tillarni o‘rganishda, savodxonlikni oshirishda, nutq madaniyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. [4]

Lingvomadaniyatshunoslik ahamiyatga ega barcha so‘zlarni bir tildan ikkinchi tilga to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilmaydi, ularni transliteratsiya, transkriptsiya, kalka va tasvirlash kabi usullardan foydalanib tarjima qilinadi [1]. Ayniqsa turizmga oid hamda mehmonxona xizmat ko‘rsatish sohasiga oid so‘zlar ingliz tilida bir ma’noni bildirsa, o‘zbek tilida boshqa ma’noni bildiradi. Ayrim so‘zlar esa ingliz tilida ishlatsa, o‘zbek tilida unday so‘zlar ishlatilmaydi. Shuningdek, xizmat ko‘rsatish sohasida ayrim xizmat turlariga oid terminlar ingliz tilida mavjud bo‘lsa-da, ammo o‘zbek tilida unday xizmat turlari va so‘zları ham mavjud emas va ularni o‘zbek tiliga to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilib bo‘lmaydi. Masalan, *backpack* so‘zi ingliz tilida sayyoohlар foydalanadigan maxsus sumka bo‘lib, o‘zbek tilida uning rus tilidagi varianti *ryukzak* so‘zi ishlataladi, chunki o‘zbek madaniyatida bunday sumka turi yo‘qligi sababli ushbu so‘zdan foydalanildi. AdjRevPAR (Adjusted Revenue Per Available), ADR (Average Daily Rate), AHR (Average House Rate) va hokazo, kabi xizmat turlari o‘zbek sayyoohlilik terminlarida ishlatilmaydi, bu terminlar ma’nosidan kelib chiqib tarjima qilinadi (O‘rnatilgan daromad ko‘rsatkichi, o‘rtacha kunlik ko‘rsatkich, o‘rtacha daraja) [2].

Tarjima qilish jarayonida yuqorida keltirilgan so‘z birikmalari to‘g‘ridan to‘g‘ri, so‘zma-so‘z tarjima qilinmaydi va bunday qiyinchilik tarjimondan mahorat, lingvokulturologik yondashuv va, albatta, bilim talab etadi.

Buyuk Britaniya va AQSh kabi davlatlarda sug‘urta xizmat ko‘rsatish sohasi yaxshi rivojlangan:

National insurance - milliy sug‘urta;

Life insurance/personal insurance - shaxsiy sug‘urta;

Property insurance - mol-mulk sug‘urtasi;

Social insurance - ijtimoiy sug‘urta;

Health insurance - tibbiy sug‘urta;

Pet insurance - uy hayvonlari sug‘urtasi;

Vehicle insurance—transport vositasi sug‘urtasi kabi turlari mavjud bo‘lib, milliy sug‘urta, uy hayvonlari sug‘urtasi kabi tushunchalar o‘zbek tilida yo‘qligi sababli, tarjima qilinganda so‘zga ta’rif berish usuli orqali tarjima qilinadi. Buyuk Britaniya va AQSh madaniyatida uy hayvonlarni oila a’zosi sifatida qaraladi va ularning o‘z huquqlari bor deb hisoblashadi. Hamda ushbu davlatlarda uy hayvonlarining tug‘ilgan kunlarini tashkillashtirishda “Pet ceremony agency” deb nomlangan xizmat turi nishonlashga yordam beradi. Bunday termin va so‘z birikmalarini tarjima qilishda o‘zbek tarjimonlaridan katta mahorat va boy madaniy bilimni talab qiladi, chunki bunday xizmat turi o‘zbek madaniyatida yo‘q. Ular faqatgina g‘arb mamlakatlarida mavjuddir.

Amerika madaniyatida biror kishi to‘satdan yiqilib tushsa, uning ahvolini so‘rash uchun “Are you all right?” savolini berish mumkin. Ammo ushbu iborani o‘zbek tiliga “Hammasi joyidami?” qabilida tarjima qilsak, yiqilgan odamga nisbatan kutilmagan munosabat bildirgan, noqulay vaziyatga solgan bo‘lamiz. Bizning madaniyatimiz normasiga ko‘ra “Hech narsa bo‘lmadimi?”, “Og‘rimayaptimi?”, “Yordam beraymi?” qabilidagi savollar berish o‘rinlidir.

### **FOYDALINAYOTGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Qurbonovna I.M., Ubaydillo o‘g‘li N.B. (2021). Using Multimedia Spechees in Teaching a Foreign Language. Ижтимоий фанларда Инноватция онлайн илмий журнали, 1 (1), 91-94b.
2. Qurbonovna I.M. (2021). The importance of ICT in the Teaching English Language. Ижтимоий фанларда Инноватция онлайн илмий журнали, 1 (1), 8-10b.
3. Pirimov A., Qodirova X. Tilshunoslikning dolzarb muammolari - Xorazm “Adabiyot uchqunlari” nashriyoti, 2019 y., 13b.
4. Omonturdiyev A., Raimnazarova N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili -Surxondaryo “Termiz davlat universiteti” nashriyoti, 2010 y., 118-119b.
5. Cambridge Advance Learner’s Dictionary 3rd edition. Cambridge University Press, 2008.
6. Sherzodovich, A. S. (2020). The role of online teaching and innovative methods. *Science and education*, 1(3), 524-528.
7. Аслонов, Ш. Ш. (2020). КОМПЬЮТЕРНАЯ ЛИНГВИСТИКА И ФИЛОЛОГИЯ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ. Гуманитарный трактат, (84), 17-19.
8. Aslonov, S., & Ruzimurodova, Z. (2020). THE USE OF ACRONYMS AND INITIALISMS IN BUSSINES ENGLISH. Студенческий вестник, (12-5), 34-35.
9. Umida, K., Zarina, R., & Shahram, A. (2020). Characteristics, significance and role of motivation problems in foreign language learning. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(3), 61-65.
10. Аззамов, Ю. Р. (2021). ГАСТРОНОМИК КОМПОНЕНТЛИ ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАРНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 4(5).